



N.A. ISMATOV, S.D. BOBOYEV,
SH.J. YULDASHEVA

ASPIRATSIYA VA PNEVMOTRANSPORT QURILMALARI





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

N.A. ISMATOV, S.D. BOBOYEV, SH.J.YULDASHEVA

664.7
I-85

ASPIRATSIYA VA PNEVMOTRANSPORT QURILMALARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

TOSHKENT
«TALQIN»
2007



Oliy va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash nashrga tavsiya etgan.

Taqrizchilar:

- O.F. Safarov* — Buxoro OO va YSTI professori, t.f.d.;
N.Sh. Abdullayev — Buxoro shahar Agroiqtisodiyot kolleji dotsenti, t.f.n.

N.A. Ismatov va boshq.

Aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. /N.A. Ismatov, S.D. Boyev, Sh.J. Yuldasheva. T.: «Talqin», 2007. — 176 b.

Mazkur o'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun «Aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalari» fani o'quv dasturiga asosan yozilgan. O'quv qo'llanmasida aspiratsiya va pnevmotransport qurilmalarining qisman nazariy asoslari, chang tozalagichlar, o'lchovchi, nazorat qiluvchi uskunalar va ventilatorlar, shuningdek, aspiratsiya va pnevmotransport tarmoqlarini hisoblash va loyihalash asoslari keltirilgan.

KIRISH

Mehnat sharoitini yaxshilash asosida korxonada ishchilarning farovonligi oshishi, ularning sog'lig'i va mehnat sharoiti yaxshilanishi, ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligi ortishida hamda havoni ifloslanishdan saqlashda havoni yangilash (ventilatsiya) va pnevmotransport qurilmalari juda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologik jarayonlar, atrof-muhitga katta miqdorda chang tarqalishi bilan sodir bo'ladigan sochiluvchan mahsulotlarni tashish va mexanik ishlov berish bilan bog'liq. Shuning uchun havoni almashtirish qurilmalarining asosiy vazifasi ish xonalarida havoning tozaligini ta'minlash va qulay mehnat sharoiti yaratishdan iborat. Ish xonalarida havodagi chang miqdori sanitariya me'yorlariga ko'ra $2-6 \text{ mg/m}^3$ dan ortmasligi kerak. Bunga jihozlarning chang hosil bo'ladigan korpuslaridan aspiratsiya vositasida changni tortib olish yo'li bilan erishiladi. Aspiratsiya vaqtida jihozlarning zich (germetik) qobiqlari ichida vakuum hosil bo'lib, u xonaga chang ajralib chiqishining oldini oladi. Qulay mehnat sharoiti havoni konditsiyalash orqali yaratilishi mumkin.

Havoni almashtirish qurilmalari bizni o'rab turgan atmosfera havosining tozaligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Korxonaga tutashgan aholi yashash joylarida havodagi chang miqdori $0,5 \text{ mg/m}^3$ dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Korxonalarda 1 t donni qayta ishlash uchun 25000 m^3 havodan foydalaniladi. Bir sutkada atmosferaga qisman ozuqa sifatida foydalanish mumkin bo'lgan 100 t chang chiqariladi. Shuning uchun havoni tozalash samaradorligining oshirilishi atmosfera havosining tozaligini yaxshilash va changsimon ozuqa mahsulotlarini tejash imkoniyatini beradi.

Havoni almashtirish qurilmalari shu bilan birga muhim texnologik vazifalarni ham bajaradi. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida havo oqimi donni oraliq mahsulotlardan tozalaydi, yanchish va qayroqlash mahsulotlarini boyitadi, mashinalarning ish

qismlarini sovitadi. Bularning barchasi ishlab chiqarilayotgan un va yorma sifatini yaxshilash, korxonalarning unumdorligini va donning saqlanuvchanligini oshirish imkonini beradi.

Sanoat korxonalarida changdan portlash yuz berishini bartaraf etishda havoni almashtirish qurilmalarining ahamiyati juda katta. Bunga chang hosil bo'ladigan joylardan changni olib ketish va uning portlash jihatidan xavfli miqdorini yo'qotish bilan erishiladi.

Hozirgi vaqtda havoni almashtirish texnikasi quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilmoqda:

- mavjud havoni almashtirish qurilmalarini takomillashtirish;
- mukammal havoni almashtirish qurilmalarini loyihalash va qurish;
- foydali ish koeffitsiyenti (FIK) yuqori bo'lgan havoni almashtirish qurilmalarini, asosan ventilatorlar va chang ajratkichlarni yaratish va qo'llash;
- havoni almashtirish texnikasining nazariy masalalarini ishlab chiqish, masalan havo o'tkazgichlarda havo tezligini tanlashning nazariy asoslarini izlash;
- aspiratsiya qurilmalarining qismlarini mukammallashtirish;
- havoni almashtirish tarmoqlari xillari va miqdorining tanlanishini asoslab berish;
- havoni almashtirish qurilmalarini hisoblash usullarini takomillashtirish;
- havoni almashtirish qurilmalarini ishlatishda avtomatik nazorat va sozlashni kuchaytirish va boshqalar.

Korxonalarda mavjud bo'lgan havoni almashtirish qurilmalari bir qator kamchiliklarga ega jumladan:

- ishlab chiqarish binolarida havo almashinuvi ortadi;
- ishlab chiqarish binolarida vakuum yuqori bo'ladi (qishda vakuum 50 Pa o'rniga 300—650 Pa bo'ladi);
- nazorat-o'lchash asboblari kam yoki yo'q;
- mavjud chang ajratgichlar (siklonlar, filtrlar)ning samaradorligi va ishonchligi past;
- aspiratsiyalanadigan jihozlar, asosan, elevatordagi jihozlar korpusining zichligi buziladi.

Ishlab chiqarish binolaridagi havo almashinuvi va vakuumni kamaytirish uchun quyidagilar loyihalaniishi lozim: havoni resirkulyatsiyalovchi havoni almashtirish qurilmalari; havoni konditsiyalaydigan havoni almashtirish qurilmalari; aspiratsiyalanadigan jihoz yoki xonaga tashqi havoni tartibli olib kelish; havo yopiq siklda aylanadigan havoni almashtirish qurilmalari.

Pnevмотransпорт қурилмаларининг қуввати 100 тоннadan ортиқ бо'лиши, маҳсулотни бир неча километр масофага ко'чирishi ва 100 метрдан yuқorироқ баландликка ко'tarishi мумкин.

Don va donni qayta ishlash mahsulotlarini ko'chirishda pnevmotransport mexanik transport qurilmasiga nisbatan ancha qulay va foydali vositadir. Pnevмотransпорт qurilmalarini donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida qo'llash ishlab chiqarish unumdorligini oshirish omillarining biridir.

Tegirmon, yorma va omixta yem korxonalarini pnevmotransport qurilmalari bilan to'liq jihozlash natijasida ishlab chiqarishning sanitariya holati va ish o'rinlarining yoritilishi yaxshilanadi, texnologik jarayonlarni mukamallashtirish sharoiti ta'minlanadi, mehnat unumdorligi oshadi va ishlab chiqarish maydonlaridan yanada to'liq foydalanish imkoniyati yaratiladi.

I-BOB. VENTILATSIYA QURILMALARINING TASNIFI VA VAZIFALARI

1-§. VENTILATSIYA QURILMALARINING TASNIFI

Ventilatsion qurilmalari quyidagi beshta asosiy qismlardan iborat:

- shamollatiladigan yoki aspiratsiyalanadigan obyektlar (mashinalar, apparatlar, mexanizmlar, bunkerlar, siloslar, binolar);


- havoni kerakli tezlikda zarur yo'nalishda harakatlantirishga mo'ljallangan havo o'tkazgichlar (havo quvurlari) yoki kanallar;

- havo oqimiga energiya uzatuvchi ventilatorlar — tabiiy yoki mexanik uzatgichlar;

- havoni changdan tozalovchi chang ajratgichlar (siklonlar, filtrlar);


- yordamchi jihozlar (kaleriferlar, yuvish kameralari yoki konditsionerlar, klapanlar, to'siqlar, nazorat-o'lchash asboblari, havo o'tkazgichlar va bosimni o'lchash tuynuklari).

Ana shu qismlarni yagona tizimga birlashtirilib havoni almash-tirish qurilmasi yoki tizimi yoxud tarmog'i hosil qilinadi. Havoni almashtirish qurilmalarining ba'zi bir sxemalari 1, 2 va 3-rasmlarda keltirilgan.




1-rasm. Ventilatsiya qurilmasi sxemasi:

1 — aspiratsiya qilinuvchi jihoz; 2 — havo o'tkazgich;
3 — changtozalagich; 4 — ventilator.




2-rasm. Yopiq holda havoni qabul qiluvchi havoni almashtirish qurilmalari sxemalari:

a — jihozlarni shamollatish uchun: 1 — aspiratsiya qilinadigan mashina;
 2 — havo o'tkazgichlar; *b* — xonani shamollatish uchun: 1 — ventilator;
 2 — havoni qayta ishlash (tozalash, qizitish, namlash) uchun qurilma;
 3 — havo o'tkazgich.



3-rasm. So'ruvchi havo almashtirish qurilmalarining sxemalari:

a — filtrli; *b* — siklonli: 1 — aspiratsiya qilinadigan jihoz; 2 — ventilator;
 3 — so'ruvchi filtr; 4 — shluзли zatvor; 5 — siklon.



4-rasm. Deflektorning sxemasi:

1 — silindr; 2 — diffuzor;
3 — havo o'tkazgich.

Qo'llaniladigan qo'zg'atuvchi (birinchi belgi) turiga qarab havoni almashtirish qurilmalari ikki turga: tabiiy va mexanik qo'zg'atuvchili qurilmalarga bo'linadi. Tabiiy qo'zg'atuvchi sifatida shamol, harorat va bosim farqi, yoki harakatlanayotgan obyektlarning energiyasi ishlatiladi. Mexanik qo'zg'atuvchili qurilmalarda ventilatorlardan foydalaniladi.

Tabiiy qo'zg'atuvchili qurilmalarning afzal tomoni shundaki, foydalanish harajatlari talab qilinmaydi (masalan, shamol energiyasidan foydalanish hisobiga).

Shamol yordamida hosil qilinayotgan bosimlar farqi natijasida deflektor xonadan havoni so'rib oladi (4-rasm).

Deflektor havo o'tkazgichi 3 dagi havoning tezligi shamolning tezligiga bog'liq bo'lib, odatda $v = 0,4v_{sh}$ bo'ladi. Deflektor hosil qilayotgan bosim shamolning dinamik bosimi va deflektor konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi. Odatda

$$H_{def} \equiv 0,5 \frac{\rho v_{sh}^2}{2}, \quad (1)$$

bu yerda: ρ — havoning zichligi, kg/m^3 .


Deflektor so'rib olishi mumkin bo'lgan havo miqdori Q (m^3/sek) quyidagi formula orqali topiladi:

$$Q = \frac{\pi d^2}{4} v, \quad (2)$$

bu yerda: d — deflektor havo o'tkazgichining diametri, m.

Tabiiy qo'zg'atuvchili qurilmalarning asosiy kamchiligi samaradorligining doimiy emasligi, havo sarfining va bosimning kichikligidir.

Shuning uchun sanoatda samaraliroq hisoblangan mexanik qo'zg'atuvchili havoni almashtirish qurilmalaridan foydalaniladi. Bu qurilmalarning asosiy afzalligi samaradorligining doimiyligi, juda ko'p miqdorda havo ko'chira olishi va 12 000 Pa yuqori bo'lgan qarshilik bosimini yengishidan iborat.



5-rasm. Ochiq turdagi havoni almashtirish qurilmalari sxemasi:

1 — zaharli chiqindilarni ajratadigan aspiratsiya qilinuvchi jihoz; 2 — ventilator.

Obyektlarni shamollatish usuliga ko'ra (ikkinchi belgi) havoni almashtirish qurilmalari uch turga bo'linadi: ochiq, yopiq va kombinatsiyalangan (aralash) qurilmalar.

Ochiq turdagi qurilmalarda havo jihozda bevosita ish xonasidan havo o'tkazgichsiz ko'chiriladi (5-rasm).

Yopiq turdagi qurilmalarda havo jihozdan havo o'tkazgich orqali uzatiladi (1, 2 va 3-rasmlar). Aralash qurilmalarda jihozlarning bir qismi ochiq, bir qismi esa yopiq usulda aspiratsiyalanadi.

Ochiq havoni almashtirish qurilmalarining afzalligi shundaki, xonada havo o'tkazgichlar bo'lmaydi. Keragidan ortiq havoni ko'chirishda xonada jihozdan chiqqan chang yoki gaz miqdori sanitariya me'yorlaridan ortiq bo'lishga ruxsat etilmasligi ularning kamchiligi sanaladi. Shuning uchun korxonalarda ochiq havoni almashtirish qurilmalaridan juda kam foydalaniladi. Yopiq qurilmalardan ko'proq foydalaniladi, chunki ular samarali hisoblanadi va chang (gaz) miqdori ko'p bo'lgan kam miqdordagi havoni ko'chiradi.

Shamollatiladigan obyektlarda havo harakatining yo'nalishiga ko'ra (uchinchi belgi) so'ruvchi, haydovchi va kombinatsiyalangan (aralash) qurilmalarga bo'linadi.

So'ruvchi tizimlarda havo obyektlardan so'rib olinadi va ular vakuum ostida bo'ladi. Bunday qurilmalar aspiratsiya (aspiratio — so'rish) qurilmalari deyiladi.

Haydovchi qurilmalarda havo obyektlarga haydaladi va ular yuqori bosim ostida bo'ladi (2-rasmga qarang).


Haydovchi-so'ruvchi tizimlarda bir vaqtning o'zida obyektlarga havo haydaladi va ulardan havo so'rib olinadi.

So'ruvchi havoni almashtirish qurilmalarining asosiy afzalligi shundaki, ular jihoz ichida vakuum hosil qilib, chang va gazlar xonaga chiqishining oldini oladi va xonalarda sanitariya me'yorlariga to'g'ri keladigan havoning tozaligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Shuning uchun so'ruvchi aspiratsion qurilmalar sanoat korxonalarida keng qo'llaniladi.


Haydovchi qurilmalar faqat jihozlarni sovitish, xonalarni shamollatish yoki donni faol shamollatishda toza havoni ko'chirish uchun qo'llaniladi.

Chang ajratgich va ventilatorning o'zaro joylashuviga (to'rtinchi belgi) qarab qurilmalar so'ruvchi, haydovchi va aralash qurilmalarga bo'linadi. So'ruvchi qurilmalarda ventilator chang ajratgichdan keyin o'rnatiladi va u orqali tozalangan havo o'tadi.

Haydovchi qurilmalarda ventilator chang ajratgichdan oldin joylashtiriladi va ular orqali changli havo o'tadi (6-rasm).



6-rasm. So'ruvchi qurilmaning sxemasi:
1 — aspiratsiya qilinuvchi jihoz; 2 — ventilator;
3 — siklon.



7-rasm. Resirkulatsiyalovchi havoni almashtirish qurilmalarining sxemasi:
1 — aspiratsiya qilinuvchi jihoz; 2 — havo kiruvchi ochib-mahkamlanadigan teshik; 3 — matoli so'ruvchi filtri; 4 — matoni shamollatish uchun havoning kirishi; 5 — klapan; 6 — ventilator; 7 — resirkulatsiyalovchi apparat.

Aralash qurilmalarda havo ikki marta: dastlab ventilatorgacha va ventilatordan keyin tozalanadi. Aralash qurilmaga misol qilib resirkulatsiyalovchi shamollatish qurilmasini ko'rsatish mumkin (7-rasm).

So'ruvchi qurilmalarning haydovchi qurilmalarga nisbatan afzalligi: ventilator kam yeyiladi, portlash xavfi kam, ish xonalaridagi havo kam changiydi, umumiy maqsadlarga mo'ljallangan ventilatorlarda foydalanish mumkin.

Ba'zi hollarda elevatorlarda, afzal hisoblangan haydovchi qurilmalardan foydalaniladi. Masalan, so'ruvchi qurilma chang ajratgichda reduktorli shluzli zatvorlar o'rnatish talab qilinsa, haydovchi qurilmalarda bunga hojat yo'q.

Tasnifining beshinchi belgisiga ko'ra, havoni almashtirish qurilmalari mahalliy va markaziy turlarga bo'linadi.


Mahalliy qurilmada har bir shamollatiladigan mashina o'zining ventilatoriga ega bo'ladi (8-rasm).

Markaziy havoni almashtirish qurilmalarida aspiratsiyalanadigan mashina alohida ventilatorga ega bo'lmaydi, balki bitta umumiy ventilator bilan xizmat ko'rsatiladi (6-rasmga qarang).

Mahalliy havoni almashtirish qurilmalarining markaziy havoni almashtirish qurilmalariga nisbatan afzalligi: oddiy va ishonchli ishlaydi; boshqa mashinalarning ishiga xalaqit bermasdan mashinani o'chirish va havo tartibini sozlash imkoniyati bor.

Mahalliy qurilmalarning kamchiligi: katta miqdorda ventilatorlar, elektrdvigatellari va chang ajratgichlardan foydalaniladi, bu esa iqtisodiy tomondan samarasiz hisoblanadi.

Loyihalash vaqtida odatda markaziy havoni almashtirish qurilmalaridan foydalaniladi. Ammo aspiratsiyalanadigan mashina tez-tez o'chiriladigan, havo kelish tartibi o'zgartiriladigan hollarda, masalan, separatorlar, havo bilan ish-



8-rasm. Mahalliy havoni almashtirish qurilmalari sxemasi:

1 — o'zining alohida ventilatori bo'lgan, aspiratsiya qilinuvchi mashina; 2 — siklon.

lovchi g'alvirlash mashinalarida mahalliy qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jihozdan so'rib olinayotgan havodan foydalanishga ko'ra havoni almashtirish qurilmalari to'rt turga bo'linadi:

— so'rib olinayotgan havodan foydalanmasdan, tozalab atmosferaga chiqaruvchi;

— resirkulatsiyalovchi qurilmalar;


— havoni tartibli tarzda olib keladigan qurilmalar;

— konditsionerlash bilan yopiq havo sikliga ega bo'lgan keladigan qurilmalar.

Atmosferaga tozalangan havoni chiqaruvchi birinchi turdagi qurilmalarning tuzilishi sodda bo'lganligi sababli keng qo'llaniladi. Ammo birinchi turdagi qurilmalarning o'zidagina foydalanish ishlab chiqarish binolarida havo almashinish yuqori va vakuum hosil bo'lishiga olib keladi, bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

So'rib olingan havoni resirkulatsiyalovchi ikkinchi turdagi qurilmalarda havo oldin matoli filtr bilan tozalanadi, so'ng yuvish xonasida yoki resirkulatsiya apparatida takroran tozalanadi, keyin esa yana ishlab chiqarish binosiga yuboriladi (7-rasm).

Resirkulatsiyalovchi qurilmalarda, tozalashtan keyin xonaga qaytarilayotgan havoning changlilikligi sanitariya me'yorlarda ko'rsatilgan miqdorning 30% idan ko'p bo'lmasligi kerak. Shuning uchun chang ajratgichlarning ish samaradorligiga katta talab qo'yiladi. Bundan tashqari, yong'in xavfsizligi qoidalariga ham rioya qilinadi.



9-rasm. Yuvish kameralari yoki havo-suv konditsionerlari yordamida resirkulatsiyalovchi havo almashtirish qurilmalarining sxemasi:

1 — aspiratsiya qilinadigan jihozlar; 2 — matoli so'ruvchi filtr; 3 — matoni shamollatish uchun havoning kirishi; 4 — klapan; 5 — ventilator; 6 — tashqi havoni isitish uchun kalorifer; 7 — donni yuvish va tozalash uchun suv uzatilishi; 8 — yuvish kamerasi yoki konditsioner; 9 — havo uzatuvchi ventilator; 10 — havoni tarqatuvchi havo o'tkazgichlar.

Resirkulatsiyalovchi qurilmalarning kamchiligi qaytayotgan havo harorati va namligini rostlash imkoniyatining mavjud emasligidir. Bundan tashqari, yuvish kameralaridan foydalanish uchun katta joy va ko'p miqdorda suv sarflash (1 m^3 havoga $0,12 \text{ l}$ yoki 1 t qayta ishlanayotgan donga $1,8 \text{ m}^3$ suv) talab qilinadi.

Uchinchi turdagi qurilmalar mukammalroq hisoblanib, ularda yuvish kameralarining o'rniga havo-suv konditsionerlaridan foydalaniladi (9-rasm).


Bu qurilmalarda havo nafaqat changdan yaxshi tozalanadi, balki texnologik jarayon va inson faoliyati uchun qulay bo'lgan harorat va namlikka ega bo'ladi. Shu maqsadda konditsionerga havo harorati va namligini rostlash uchun tashqaridan havo olib, resirkulatsiyalanayotgan havo bilan aralashtirish ko'zda tutilgan.

Konditsionerli havo almashtirish qurilmalarining kamchiligi: ularning tannarxi baland, tuzilishi murakkab va havo parametrlarini avtomatik tarzda sozlash tizimlari ishonchsiz ishlaydi.


Havoni tartibli tarzda olib keladigan to'rtinchi turdagi qurilmalarda, havo aspiratsiyalanadigan qurilmaga xonadan emas, balki maxsus havo o'tkazgich yordamida binoning tashqarisidan olib kelinadi (10-rasm).

Bu qurilmalarning afzalligi shundaki, resirkulatsiyalash va kondensiyalashga nisbatan oddiy va samarali usul bo'lib, ishlab chiqarish xonalarida havo almashinishi yuqori bo'ladi va vakuum bartaraf etiladi.

Havoni tartibli tarzda olib keladigan qurilmalarning kamchiligi ularni qo'llash imkoniyatlarining cheklanganligidir, chunki sovuq tashqi havo parametrlari ji-hozlarni aspiratsiyalashga doim yaroqli bo'lavermaydi. Shuning uchun bunday qurilmalarni bino ichidagi havo parametrlaridan farq qilmaydigan joylarda loyihalash mumkin.



10-rasm. Jihozga havoni tartibli tarzda olib keluvchi havo almashtirish qurilmalarning sxemasi:
1 — aspiratsiya qilinadigan jihoz; 2 — siklon; 3 — ventilator; 4 — tashqi havoni olib kelish uchun havo o'tkazgichlar.



11-rasm. Havo sikli yopiq bo'lgan havoni almashtirish qurilmalarining sxemasi:

1 — aspiratsiya qilinadigan jihoz; 2 — batareyali siklon; 3 — ventilator.

Havo sikli yopiq bo'lgan havo almashtirish qurilmalarida havo yopiq tizmda aylanadi. Jihozdan havo batareyali tozalash siklonlariga, keyin ventilatorga, undan esa havo o'tkazgich orqali yana jihozga qaytadi ya'ni aylanib yuradi (11-rasm).

Aspiratsiyalanadigan jihozning va chang ajratgichlarning to'liq zich bo'lishi zarurligi havo yopiq siklda aylanib yuradigan qurilmalarning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Bundan tashqari, yopiq siklni ish jarayonida issiqlik ajraladigan mashinalarda qo'llab bo'lmaydi.

Shu sababli havoni almashtirish qurilmalari kam qo'llaniladi.

2-§. VENTILATSIYA QURILMALARINING VAZIFALARI

Havoni almashtirish qurilmalari yordamida korxonalarda me'yordagi sanitariya-gigiyenik, texnologik va portlash xafsizligini ta'minlaydigan mehnat sharoiti yaratiladi.

Sanitariya-gigiyenik vazifasi. Havoni almashtirish qurilmalari jihozlarni aspiratsiyalash vaqtida chang va zararli chiqindilarni olib ketadi va ishlab chiqarish binolarida havo tozaligini sanitariya me'yorlari darajasida ta'minlab turadi. Shu bilan birga ular eng qulay meteorologik sharoit yaratadi, ya'ni ish binolarida havo me'yorida sovishini va havo namligi me'yorida bo'lishini ta'minlab turadi.

Havo toza va me'yoriy sovitish xususiyatiga ega bo'lsa, gigiyenik hisoblanadi. Bu, o'z navbatida harorat, nisbiy namlik va tezlikka bog'liq bo'ladi. Agar havo tarkibida chang, gaz va boshqa zararli chiqindilar sanitariya me'yorlarida belgilangan miqdorda bo'lsa, toza hisoblanadi. Masalan, donni saqlash va qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish binolaridagi havoda chang miqdori 2—6 mg/m³ dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Sanitariya-gigiyenik talablarga javob beradigan va portlash jihatidan xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash uchun ventilatsiyaning asosiy differensial tenglamasini inobatga olinib zararli chiqindilarni chiqarib tashlash uchun havo sarfi hisoblanadi.

Havoning sovitish qobiliyati uchta kattalik: havoning harorati $t^{\circ}(C)$, namligi (%) va tezligi v (m/s) ga bog'liq bo'ladi. Harorat qanchalik yuqori bo'lsa, sovitish qobiliyati shunchalik kam bo'ladi, havoning nisbiy namligi qanchalik katta bo'lsa, sovitish qobiliyati ham shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Sanitariya me'yorlariga ko'ra, ishlab chiqarish xonasida me'yoriy sharoit bo'lishi uchun, yilning issiq davrida, o'rtacha mehnat turida havoning harorati $t = 15-20^{\circ} C$, nisbiy namligi $\varphi = 40-60\%$ (75% dan ortiq emas), tezligi $v = 0,3$ m/s bo'lmog'i kerak.

Yilning iliq mavsumi uchun havoning ko'rsatkichlari $t = 20-23^{\circ} C$, $\varphi = 40-60\%$, $v = 0,3-0,7$ m/s bo'lishi lozim.

Loyihalash vaqtida ish xonalarida havoning sovitish qobiliyati havo almashinishiga i (bir soatda almashinish), ya'ni vaqt birligi ichida belgilangan hajmdagi havo necha marta almashinishiga bog'liqligi inobatga olinishi zarur:

$$i = \frac{Q}{V_x}, \quad (3)$$

bu yerda: Q — shamollatish vaqtida xonadan chiqariladigan havo miqdori (m^3 /soat); V_x — xonaning hajmi (m^3).

Tegirmon, yorma va omixta yem korxonalaridagi me'yoriy havo almashinish bir soatda 1 dan 1,5 gacha, elevatorlarda esa 1 dan 3 gacha.

Texnologik vazifasi. Havoni yangilash qurilmalari quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- donni aerodinamik xossalari bilan farqlanadigan aralashmalardan tozalash;

- donni maydalash va po'st ajratishda chiqqan oraliq mahsulotni boyitish;


- ish qismlarini va maydalash mahsulotlarini sovitish maqsadida mashinadan issiqlikni olib ketish;

- konditsiyalash va quritish vaqtida donni qizdirish va sovitish;

- ishlab chiqarish binolarida texnologik jarayonlar uchun qulay iqlimiy sharoit yaratish va ta'minlab turish;

- donni saqlash vaqtida faol shamollatish.

3-§. DONNI HAVO OQIMI YORDAMIDA CHIQUINDILARDAN TOZALASH



12-rasm. Pnevmatik tozalash
kanalida donlarning chiqindilardan
tozalanish sxemasi.

Bu ish separatorlarda, pnevmo-aspiratsiyalash va aspiratsion kolonkalarda odatda to'rt burchak kesimli pnevmatik tozalash kanallarida amalga oshiriladi (12-rasm).

Donni chiqindilardan tozalash uchun kerak bo'ladigan havo miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q = 3600 v_k S_k, \quad (4)$$

bu yerda: v_k — kanaldagi havoning tezligi, m/s; S_k — kanalning ko'ndalang kesimi yuzi, m².

Donni aerodinamik xususiyati bo'yicha chiqindilardan tozalashda kanaldagi havoning tezligini v_k donning eng kichik ko'tarilish tezligi $v_{k.d}$ dan kichik va chiqindilar-

ning ko'tarilish tezligidan $v_{k.ch}$ katta qilib olinadi ya'ni, $v_{k.d} > v_k > v_{k.ch}$; S_k — kanal ko'ndalang kesimining don bilan havo kesishadigan qismi yuzi, m².

To'liq bo'lmagan, masalan, puch donlarning olib ketilish tezligi kichik bo'lib, chiqindilar bilan birgalikda olib ketilishi mumkin. Shuning uchun (4) formula yordamida havo sarfini hisoblashda bug'doy doni uchun tezlikni $v_k \leq 6,0$ m/s va po'st ajratish mahsulotlari uchun $v_k = 4-5$ m/s qilib olinadi.

S_k ning qiymatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S_k = a \cdot b, \quad (5)$$

bu yerda: a — kanalning chuqurligi, m; b — pnevmokanalning eni, m.

Pnevмокanalning eni b (m) mashinaning ta'minlovchi mexanizmini uzunligiga teng. U mashina unumdorligiga G (kg/soat) qarab aniqlanadi:

$$b = \frac{G}{100 q_s}, \quad (6)$$

bu yerda: G — mashinaning unimdorligi (kg/soat); q_s — pnevmo-kanaldagi solishtirma yuklama (kg/sm soat).

Oraliq mahsulotlarni boyitishdagi havo sarfi (4) formula bilan aniqlanadi:

$$Q = 3600 \cdot v_k \cdot S_k,$$

bu yerda: S_k — g'alvirning havo purkalayotgan qismi yuzi, m^2 ; v_k — g'alvir va mahsulot qatlami ustidagi havo tezligi, m/s.

Havo bilan ishlaydigan g'alvirli mashinalarda yormacha va dunstlarni boyitish jarayonida kanallardagi havoning tezligi v_k g'alvir usti bilan borayotgan po'st bo'lakchalarining ko'tarilish tezligidan kichik bo'lishi kerak. Masalan, po'stli katta yormacha bo'lagi uchun eng kichik ko'tarilish tezligi 1 m/s, o'rtacha yormacha uchun 0,8 m/s, kichkina yormacha uchun 0,5 m/s va dunst uchun 0,4 m/s. Kanaldagi havoning tavsiya qilinadigan tezligi v_k quyidagicha: katta yormacha uchun 0,6 m/s, o'rtacha yormacha uchun 0,45 m/s, kichkina yormacha uchun 0,36 m/s va dunstlar uchun 0,31 m/s.

4-§. ISSIQLIKNI OLIB KETISH

Mahsulotlarga mexanik ishlov berish vaqtida, masalan, yanchish mashinalarida, elektrdvigatelidan uzatilayotgan mexanik energiya qariyb to'liq issiqlikka aylanadi.

Mashinalarda hosil bo'layotgan issiqlik ishlov berilayotgan mahsulotni va mashinaning ish qismlarini qizdiradi. Bu mahsulot sifatini yomonlashtiradi, suv bug'lari suvga aylanishiga kondensatsiyalanishiga va mashinaning unumdorligi kamayishiga olib keladi. Shuning uchun mashinani aspiratsiyalash vaqtida ortiqcha issiqlikni olib ketish kerak.


Mashinada mexanik energiyadan hosil bo'layotgan issiqlik miqdori (kJ /soat) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$J = 3600 \cdot N, \quad (7)$$

bu yerda: N — mashina uzatmasi uchun kerakli quvvat, kW.

Aspiratsiyalash vaqtida mashinadan olib ketiladigan issiqlik miqdori hosil bo'layotgan umumiy issiqlik miqdoridan kam bo'ladi, chunki hosil bo'layotgan issiqlikning bir qismi mashinaning qobig'ini qizdirishga sarf bo'ladi, bir qismi esa mashinadagi mahsulotning qizishi hisobiga kamayadi.

Mashinani sovitish uchun sarflanadigan havo miqdori quyidagi formuladan foydalanib hisoblanadi:



$$Q = \frac{a \cdot l}{\rho(i_2 - i_1)}, \quad (8)$$

bu yerda: a — aspiratsiyalashda olib ketilishi lozim bo'lgan issiqlik qismi; issiqlik balansi tenglamasidan topiladi; ρ — havoning zichligi, kg/m^3 ; i_1 , i_2 — havoning mashinaga kirish va chiqish vaqtidagi boshlang'ich va oxirgi issiqlik miqdori, kJ/kg ; harorat va namlikka qarab $i - d$ diagrammasidan topiladi.

Jihozlarni aspiratsiyalash vaqtida hosil bo'ladigan issiqlik miqdorini ishlab chiqarish binolarini isitish uchun foydalanish mumkin. Buning uchun reserkulatsiyali havoni almashtirish qurilmalar loyihalalanadi.

Issiqlikning isitish uchun foydalanish mumkin bo'lgan qismi I_0 (kJ/soat) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_0 = 3600 \cdot a_0 \cdot N_0, \quad (9)$$

bu yerda: a_0 — issiqlikning isitish maqsadida qo'llanilayotgan qismini ko'rsatuvchi koeffitsiyent; N_0 — havoni resirkulatsiyalash tarmog'ida qo'llanilayotgan mashinalarning umumiy quvvati, kW .

Havo o'tkazgichlar ichida suv bug'lari suvga aylanishining oldini olish shartlari, shamollatish qurilmalarini loyihalash vaqtida hisobga olinadi. Suv bug'larining havo o'tkazgich ichida suvga aylanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki suv tomchilari changdan qobiq hosil qilib, havo quvurlari kesimi yuzini kichiklashtiradi va tarmoqning qarshiligini oshiradi.

Tarmoq qarshiligining ortishi natijasida ventilatorning havo sarfi kamayadi. Bunda havoning tezligi pasayib, changli havo o'tkazish quvurlariga o'tirib qurilmani ishdan chiqaradi.

Suv bug'larining havo o'tkazgichlarda suvga aylanishiga issiq havoli mashinalarda tashqi muhit havosining harorati pastligi sabab bo'ladi. Sovish natijasida nisbiy namlik to shudring nuqtasi haroratiga yetguncha ortadi va nisbiy namlik $\varphi = 100\%$ bo'lganda suv bug'lari havo o'tkazgich ichida suvga aylanadi.

Havo quvurlari ichida suv bug'larining suvga aylanishi havoning tezligi, havo o'tkazgichning uzunligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, materiali va tashqi havoning haroratiga bog'liq bo'ladi.

Loyihalashda uzun kichik diametrli havo o'tkazgichlardan foydalanmaslik va ularni sovuq xonalardan o'tkazmaslik lozim.

Ma'lumki, har qanday texnologik jarayon havoning ma'lum muvofiq ko'rsatkichlarida juda yaxshi boradi. Masalan, donni saqlash uchun past harorat ($t \leq 0^{\circ}\text{C}$), past nisbiy namlik va nolga yaqin havo tezligi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Havoga qo'yiladigan texnologik talablar hamma vaqt ham sanitariya-gigiyenik talablarga mos kelavermaydi va hatto ular bir-biriga zid bo'ladi.

Bu nomuvofiqlarni elevatorlar va omborxonalarni to'liq avtomatlashtirish va masofadan boshqarishni joriy etish yoki don saqlash omborxonalarni sovitkichlar singari issiqlik o'tkazmaydigan materiallar bilan o'rash orqali bartaraf etish mumkin.


Tegirmonlarda dondan sifatli un tortish binodagi havoning quyidagi parametrlarida yaxshi amalga oshiriladi: havo harorati $15-20^{\circ}\text{C}$, nisbiy namligi $65-70\%$, tezligi $1,0\text{ m/s}$ dan kichik. Haroratning qiymati bundan kichik bo'lganida elaklar, jo'vali dastgohlar, o'zioqar quvurlar va havo o'tkazgichlarda suv bug'i suvga aylanadi, bu esa g'alvirning teshiklari bekilib qolishiga, unumdorlik pasayishiga, kommunikatsiyalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Xonadagi havo haroratining 20°C dan ortishi jihozlarning aspiratsiyalanishini yomonlashtiradi, nisbiy namlikning kamayishi esa don po'stining qurishi va ularning qovushqoqligi pasayishiga sabab bo'ladi. Natijada yuqori navli unlarining sifati yomonlashadi va portlash xavfi ortadi. Xonalarda havoning harakatlanish tezligi $1,0\text{ m/s}$ dan yuqori bo'lishi havo bilan birga mahsulot zarrachalari chiqib ketishiga olib keladi.

Tegirmonlarning ish xonalaridagi havoning parametrlariga qo'yiladigan texnologik talablar sanitariya-gigiyenik talablarga mos keladi. Shuning uchun havoni konditsiyalovchi qurilmalarni loyihalashda mehnat sharoiti va texnologik jarayonning amalga oshirish sharoiti me'yorida bo'lishini ta'minlash zarur.

Donni faol shamollatish. Bu ish donni uzoq vaqt saqlaganda qo'zg'almas don uyumini havo bilan purkashdan iborat. Faol shamollatish o'z-o'zidan qizish manbalarining oldini olish, donni sovitish, sifatini yaxshilash va saqlanish muddatini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Donni shamollatish uchun qo'zg'aluvchan ventilator 1 yordamida omborxona poliga joylashtirilgan havo taqsimlovchi ariqcha-



13-rasm. Omborxonada donlarni faol shamollatish sxemasi:

1 — harakatlanuvchi ventilator; 2 — havo taqsimlovchi kanal; 3 — havo taqsimlovchi taxtalar yoki g'ovak plitalar; 4 — don uyumi.

lar 2 orqali don uyumiga havo purkaladi. Kanallarning yuqori qismi taxtalar yoki g'ovak plitalar 3 bilan yopiladi (13-rasm).

Portlash xavfsizligini ta'minlash vazifasi. Havo almashtirish qurilmalarining portlash xavfsizligini ta'minlash vazifasi, yonuvchan va portlovchan changlarni jihozlar va ishlab chiqarish binolaridan aspiratsiyalash orqali chiqarib yuborishdan iborat.

Jihozlarni aspiratsiyalashda havodagi changning miqdori portlash xavfsizligi ta'minlanadigan darajada bo'lishi kerak. Shu maqsadda jihozlarni aspiratsiyalashga sarflanadigan havo miqdori aniqlanadi:

$$Q = \frac{K_p \cdot A}{a_{\min}}, \quad (10)$$

bu yerda: K_p — portlash xavfsizligi koeffitsiyenti, $K_p = 1,5 - 2$; A — mashinada hosil bo'ladigan yoki havoda aerol holatda bo'ladigan chang miqdori, g/soat; $a_{\min}$ — portlovchan changning eng kam miqdori (g/m^3).

A ning qiymati kattaligi kuldorlikning miqdoriy muvozanatini (balansini) hisoblash tenglamasidan aniqlanadi:

$$A = \frac{1000(\delta_1 - \delta_2)G}{\delta_k}, \quad (11)$$

bu yerda: δ_1 va δ_2 — donning ishlov berishdan oldingi va keyingi kuldorlik ko'rsatkichi, %; δ_k — changning kuldorligi, %; G — mashinaning unumdorligi, kg/soat.

Changning portlash jihatidan xavfli miqdori hosil bo'lishining oldini olish uchun aspiratsiyalovchi havo o'tkazgichlarda havoning tezligi pasaytiriladi. Buning uchun konfuzorlarning kirish kesimi yuzi kattalashtiriladi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S_k = \frac{Q_m}{v_k},$$

bu yerda: Q_m — mashinalarning aspiratsiyalashga havo sarfi, m³/sek; v_k — changli havoning konfuzorga kirish tezligi: don uchun 3 m/sec, un va donni maydalash natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar uchun 1 m/sec dan, omixta yem korxonalari mahsulotlari uchun 0,6 m/sec dan ko'p emas.

Tekshirish uchun savollar

1. Havoni almashtirish qurilmalarining sanitariya-gigiyenik vazifalari nimalardan iborat?
2. Texnologik jarayonlarning borishiga havoni almashtirish qurilmalarining ishi qanday ta'sir ko'rsatadi (misolda tushuntiring)?
3. Elevator va donni qayta ishlash korxonalarida havoni almashtirish qurilmalari yordamida qanday texnologik jarayonlar bajariladi?

II BOB. VENTILATSIYA TEXNIKASINING NAZARIY ASOSLARI

1-§. HAVONING TARKIBI VA PARAMETRLARI

Havo havoni almashtirish qurilmalarining ishchi organi hisoblanadi. Shuning uchun butun korxonaning ish samaradorligi havoning tarkibi va parametrlariga bog'liq bo'ladi.

Bizni o'rab turgan havoning tarkibi gazlar, suv bug'lari va zararli aralashmalardan iborat bo'ladi.

Havoning gazlar bilan me'yoriy aralashmasi kislorod (23,1/20,99), azot (75,55/77,03), uglerod qo'sh oksidi (0,05/0,03), argon, neon va boshqa inert gazlar (1,3/1,0), vodorod 0,01%. Suratda

moddalarning massa bo'yicha foizi, maxrajda esa hajmiy foizi ko'rsatilgan.

Havodagi suv bug'larining miqdori harorat va bosimga qarab keng chegaralarda o'zgarib turadi. Masalan havo bosimi 101367 Pa (760 mm simob ust.), quruq havo harorati -20°C bo'lganda suv bug'larining miqdori 0,8 g/kg ga, quruq havo harorati $+40^{\circ}\text{C}$ bo'lganda esa 48,8 g/kg gacha o'zgaradi.

Bizni o'rab turgan havoda me'yoriy gazlar aralashmasidan tashqari, zararli gazlar va chang zarrachalari ham mavjud. Havodagi changning miqdori chang ajratgichlarning samaradorligi va havoni almashtirish qurilmalarining takomillashganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Havoni almashtirish qurilmalarining ishiga bog'liq bo'lgan havoning parametrlari (ko'rsatkichlari) quyidagilar: bosim, harorat, namlik, zichlik, issiqlik sig'imi, qovushoqlik va tezlik.

Havoning mutlaq (absolut) va ortiqcha bosimi. Havoni almash-tirish texnikasida bosim P — absolut bosim (Pa) va H — ortiqcha bosim (Pa) ko'rinishida ifodalanadi. Ko'riladigan nuqtadagi ortiq-cha bosim H absolut bosim P va atmosfera bosimi P_a orasidagi farqni ifodalaydi.


$$\pm H = P - P_a. \quad (12)$$

«Plus» va «minus» ishorasi, ortiqcha bosim $P > P_a$ bo'lganda musbat, $P < P_a$ bo'lganda esa manfiy bo'lishi mumkinligini ko'rsa-tadi.

Havo o'tkazgichlarda quyidagi bosimlar mavjud bo'ladi: P_s — statik bosim (Pa), 1 m^3 havoning ichki energiyasini ifodalaydi (14-rasm).

P_d — dinamik bosim (Pa), tezlik yo'nalishi bo'yicha ta'sir qiluvchi 1 m^3 havoning kinetik energiyasini ifodalaydi.

P_u — umumiy bosim, 1 m^3 havoning to'liq energiyasini ifoda-laydi (Pa).



14-rasm. Havo o'tkazgichdagi bosimlarning sxemasi.

Dinamik bosimni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$P_d = \frac{\rho v^2}{2}, \quad (13)$$

bu yerda: v — havoning tezligi, m/s; ρ — havoning zichligi, kg/m³.
Bosim yo'nalishini tashkil etuvchilar hisobga olinadigan bo'lsa, quyidagilar hosil bo'ladi:

$$P_u = P_s + P_d. \quad (14)$$

Yuqoridagi tengliklarga ko'ra, havo o'tkazgichlarda ortiqcha bosimning uch turi mavjud bo'ladi.

Ortiqcha statik bosim:

$$\pm H = P_s - P_a. \quad (15)$$

Ortiqcha dinamik bosim:

$$H_d = P_d \quad (16)$$

Umumiy ortiqcha bosim:

$$\pm H_u = P_u - P_a \quad (17)$$

14-formuladagi mutlaq bosimlar o'rniga ortiqcha bosimlarni qo'yib ortiqcha bosimlar orasidagi bog'liqlikni keltirib chiqaramiz:

$$\pm H_u = H_s + H_d. \quad (18)$$

Bosimni o'lchash asboblari. Barometrlar yoki barograflar (simobli va prujinali) atmosfera bosimini o'lchash uchun qo'llaniladi.

Musbat ortiqcha bosim manometrlar bilan, manfiy ortiqcha bosim (vakuum) vakuumli manometrlar bilan o'lchanadi.

Havoni aralashtirish texnikasida ± 10 dan 3000 Pa gacha bo'lgan ortiqcha bosimni o'lchashga to'g'ri keladi. Buning uchun suyuqlikli yoki membranali mikromanometrlardan foydalaniladi.

Membranali mikromanometrlar, ishlab chiqarish sharoitida ishonchsiz hisoblanadi, chunki ular tebranish va zarblarga chidamaydi.

Suyuqlikli (suvli yoki spirtli) mikromanometrlar ancha ishonchli hisoblanadi.

Suyuqlikli mikromanometrlardan oddiy U — simon, tik (vertikal) qo'zg'almas shkalali likopchali, qo'zg'almas qiya shkalali likopchali, buraladigan qiya shkalali likopchalilari ko'p qo'llaniladi.

Suyuqlik bilan ishlaydigan mikromanometrlarning ishi bir-biriga tutash idishlardan suyuqlikni o'lchanadigan bosimlar farqi hisobiga siqib chiqarishga asoslangan. Bosimlar farqi suyuqlik ustunining gidrostatistik bosimi bilan tenglashadi.

Suyuqlikli U-simon oddiy mikromanometr. Mikromanometr diametri 6...8 mm bo'lgan, qayirib U shakliga keltirilgan shisha naychadan iborat. Naychalarning uchlari ochiq bo'lib, rezinka naycha kiygizish uchun uchlik qilingan. Bunday mikromanometrlar suyuqlik (asosan suv yoki spirt) bilan to'ldiriladi.

Havo o'tkazgichdagi havo oqimining ortiqcha statik bosimini mikromanometrning suyuqlik ustunidagi h balandlikdagi suyuqlik massasini ustun naychasini kesim yuzasiga nisbati gidrostatistik bosimga teng bo'ladi:

$$P_s = P_a + P_{su},$$

bu yerda: P_s — havo o'tkazgichdagi statik bosim; P_a — atmosfera bosimi; P_{su} — ustun naychasidagi suyuqlik bosimi.

$$P_{su} = \frac{m_{su}}{S_N},$$

bu yerda: m_{su} — ustunning h balandlikdagi suyuqlik massasi; S_N — ustun naychasining ko'ndalang kesimi yuzi. U — simon mikromanometrning tenglamasidagi suyuqlik massasini hajm va zichlik orqali ifodalasak, tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$h \cdot \rho_s \cdot g = P_a - P_s$$

yoki

$$H_s = h \cdot \rho_s \cdot g,$$

bu yerda: h — mikromanometr ustunidagi suyuqlikning balandligi, mm; ρ_s — suyuqlikning zichligi, g/sm³; g — erkin tushish tezlanishi, m/s².

U — simon mikromanometrning tuzilishi juda oddiy bo'lib, quyidagi kamchiliklarga ega:


1. Havo o'tkazgichdagi havo oqimining bosimi 200 Pa dan past bo'lganda, bosimni o'lchash aniqligi past bo'ladi.

2. Mikromanometr naychasidagi h balandlikdagi suyuqlikning miqdorini hisoblash noqulay, ya'ni buning uchun naycha shkalasidagi noldan pastda va yuqorida bo'lgan ko'rsatkichlar yig'indisini olish kerak bo'ladi.

Idishli mikromanometrilar. Idishli mikromanometrlarda ikki naychali mikromanometrning bir naychasi idish bilan almashtirilgan, uning gorizontal kesimi yuzi naychanning kesimi yuzidan 200—700 barobar katta. Shuning uchun o'lchov idishdagi suyuqlikning sathini kamayishiga qaramasdan naychadagi suyuqlik sathini balandligi orqali o'lchanadi.

Idishli mikromanometrlarning kamchiligi ham ikki naychali mikromanometrning kamchiligiga o'xshashdir, ya'ni 200 Pa dan past bosimni kam aniqlikda o'lchaydi.

Past bosimlarni juda aniq o'lchash uchun qiya naychali idishli mikromanometrlar va naychasining burchagi o'zgaruvchan bo'lgan MMH markali mikromanometrlar ishlatiladi (15-rasm).



15-rasm. MMH mikromanometri:

1 — piita; 2 — tirak vint; 3 — likobcha; 4 — uchtomonlama harakatlanuvchi jo'mrak; 5 — tiqin; 6 — sathni boshqaruvchi; 7 — vtulka; 8 — qopqoq; 9 — skoba; 10 — shkalali o'lchash naychasi; 11; 18 — kolodka; 12 — rezinka naycha; 13 — kronshteyn; 14 — barmoq; 15 — sathni tenglashtirgich; 16 — uch tomonlama harakatlanuvchi jo'mrak dastagi; 17 — naycha.

Bu mikromanometrlar yordamida bosim o'lchab olinadi va quyidagi tenglama orqali hisoblab topiladi:

$$\pm H = h \cdot \sin \alpha \cdot g \cdot \rho_s \text{ (Pa)},$$

bu yerda: h — mikromanometr naychasidagi suyuqlikning balandligi, mm; α — naychaning qiyalik burchagi, grad.

MMH mikromanometrlar uchun quyidagi tenglama ishlatiladi:

$$\pm H = h \cdot g \cdot K, \text{ (Pa)}$$

bu yerda: K — mikromanometr koeffitsiyenti:

$$K = \sin \alpha \cdot \rho_s,$$

ρ_s — suyuqlikning zichligi, g/sm³.


Eng oddiy U — simon mikromanometrning o'lchash aniqligi past. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun vertikal va qiya shkalali likobchali mikromanometrardan foydalaniladi.

Shamollatish texnikasida me'yoridagi sharoit sifatida havo bosimi $P = 760$ mm sim. ust. = 101367 Pa, harorati $t = +20^\circ \text{C}$, nisbiy namligi $\varphi = 50\%$ va zichligi $\rho_s = 1,2 \text{ kg/m}^3$ bo'lgan sharoit qabul qilingan.

Likopchali mikromanometrlarga THЖ turidagi suyuqlikli mikromanometrlar kiradi. Ularning kamchiliklari o'lchanadigan bosim kattaligiga qarab, naychaning qiyalik burchagini o'zgartirish imkoniyati yo'qligidan iborat.

Shuning uchun likopchali manometrlar o'rniga ЦАГИ va MMH turidagi egilgan naychali mikromanometrlar keng qo'llaniladi.

Shtutserlar va pnevmometrik naychalar. Havo o'tkazgichlar va boshqa jihozlarda bosimni o'lchash uchun shtutserlar va pnevmometrik naychalar qo'llaniladi.



16-rasm. Shtutserlarning tuzilishi va ularni havo o'tkazgichlarning devorlariga biriktirish usullari:

a — yupqa devorli havo o'tkazgich uchun shtutser ($\delta < 1$ mm); b, d — qalin devorli mahsulot o'tkazgichlar uchun shtutser ($\delta > 1$ mm); 1 — devor; 2 — gayka; 3 — shtutser.


Shtutserlar havo o'tkazgichlar va jihozlarning ichki devorlariga beriladigan statik bosimni (16-rasm), pnevmometrik naychalar esa statik, dinamik va to'liq bosimni o'lchashga mo'ljallangan.

Shtutserlarni o'rnatishga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat: shtutser naychasining o'qi havo o'tkazgich devoriga nisbatan perpendikular joylashishi va teshigining chetlari tekis bo'lishi kerak.

Pnevmometrik naycha. Havo o'tkazgichdagi havo oqimi bosimini qabul qilib olish uchun pnevmometrik naycha ishlatiladi.


Pnevmometrik naycha havo o'tkazgichning berilgan joydagi teshik ichiga tiqiladi va o'sha joydagi bosimni qabul qilib oladi. Pnevmometrik naycha orqali qabul qilingan bosim rezinka ichak yordamida mikromanometrغا uzatiladi. Mikromanometrda bosim ko'rsatkichi o'lchanadi.

Pnevmometrik naychani havo o'tkazgichning ichiga o'rnatish sxemasi 18-rasmda ko'rsatilgan.



17-rasm. Pnevmometrik naycha:

a — MIOT turdagisi; b — yarim sferasimon kallakli biriktirish naychasi.




18-rasm. Havo o'tkazgichga pnevmometrik naychani o'rnatish sxemasi:

1 — havo o'tkazgich; 2 — pnevmometrik naycha; 3 — yopiladigan tuynuk.

Pnevmometrik naychani tuzilishi 17-rasmda ko'rsatilgan.

Pnevmometrik naycha diametri 3 mm dan 6 mm gacha bo'lgan ikkita mis naychadan tuzilgan bo'lib, ular bir-biriga xomutchalar yordamida biriktirilgan. Naychalardan birining o'rta teshigi diametri $0,3 d$ ga teng bo'lgan kallagi yarimdoirasimon (d — umumiy bosimni qabul qiluvchi naychani tashqi diametri). Ikkinchi naycha statik bosimni o'lchash uchun ishlatiladi. Naychani o'qiga perpendikular diametri $0,1 d$ ga teng bo'lgan ikkita teshikchasi bor. Bosimni o'lchan aniqligini oshirish va havo oqimi quyulanishini yo'qotish uchun ikkinchi naycha kallagining burchagi 10° ga teng ponasimon shaklda qilingan.



19-rasm. Havoni almashtirish qurilmalarining so'ruvchi havo o'tkazgichidagi (a) va haydovchi havo o'tkazgichidagi (b) bosimni o'lchash sxemalari.

Havo almashtirish qurilmalarining havo o'tkazgichlaridagi havo bosimini o'lchashda pnevmometrik naycha havo o'tkazgichga perpendikular holatda o'rnatilgan bo'lishi kerak (18-rasm). Bunda pnevmometrik naychaning egilgan yarimsferik bosh qismi havo yo'nalishiga qarama-qarshi o'rnatilishi kerak.

So'ruvchi va haydovchi havo o'tkazgichga qurilmalarining havo o'tkazgichidagi bosimni o'lchash usullari 19-rasmda keltirilgan.



2-§. HAVONING TEZLIGI

Havoni almashtirish qurilmalarining ishlashi, samaradorligi, energiya sig'imi va ishonchli ishlashi havoning tezligiga bog'liq.

Havoning tezligi quyidagi usullar bilan: dinamik bosim orqali; kirish kollektori yordamida; havo sarfi orqali; anemometr asbobi ko'rsatkichi orqali aniqladi.

Havoning tezligini anemometrlar bilan o'lchash. Anemometrlar ochiq havo oqimi tezligini o'lchashga asoslangan. Ishlash asosiga ko'ra anemometrlar mexanik, elektr va induksion xillarga bo'linadi.

Mexanik anemometrlarga parrakli va likobchali anemometrlar kiradi. Parrakli anemometrlar 0,1 dan 5 m/s gacha bo'lgan kichik tezliklarni, likobchali anemometrlar 0,5 dan 50 m/s gacha bo'lgan tezliklarni o'lchashga mo'ljallangan (20-rasm).



20-rasm. Mexanik anemometrlar:

a — parrakli anemometr: 1 — parrakli g'ildirak; 2 — parraklar; 3 — hisoblash mexanizmi; *b* — likobchali anemometr: 1 — aylanadigan likobchalar; 2 — o'q; 3 — vintli o'q; 4, 6, 7 — ko'rsatkichlar; 5 — shkalalar; 8, 10 — tutgichlar; 9 — arretir; 11 — asbobji qotirish vinti.

Havoning tezligini mexanik anemometrlar bilan aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$v = K \frac{l_b - l_o}{t}, \quad (19)$$


bu yerda: K — asbob pasportiga ko'ra aniqlanadigan tuzatuvch koeffitsiyent; l_b va l_o — shkalaning boshlang'ich va oxirgi ko'rsatkichlari; t — o'lchash vaqti (sek); $t = 60$ sek.

Elektr anemometrlar elektr yurituvchi kuch generatori qoidasiga yoki qizdirilgan platina simga havo puflab elektr qarshiligi o'zgarishini o'lchashga asoslangan.

Induksion anemometrlarning ishlashi elektromagnit induksiya qoidasiga asoslangan. Induksion anemometrlarning kamchiligi ular o'lchamlarining kattaligi va havo o'tkazgichlardagi havoning tezligini o'lchash qiyinligidan iborat (21-rasm).

Havoning tezligini dinamik bosim orqali o'lchash. Havo o'tkazgich ko'ndalang kesimining istalgan nuqtasidagi havoning tezligi v (m/s) dinamik bosimga ko'ra quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$v = \sqrt{\frac{2H_D}{\rho}}. \quad (20)$$



21-rasm. Likopchali induksion anemometr:


- 1 — aylanadigan likobcha; 2 — vtulka; 3 — o'q; 4, 5 — podshipniklar; 6 — harorat kompensatori; 7 — doimiy magnet; 8 — magnet o'tkazgich; 9 — plita; 10 — shkala; 11 — yopqich; 12 — ko'rsatkich; 13 — o'q; 14 — prujina; 15 — dastakni tutib turuvchi; 16 — dastak.

Standart havo uchun $\rho = 1,2 \text{ kg/m}^3$. U holda $v = 1,29 \sqrt{H_D}$ bo'ladi, bu yerda: H_D — dinamik bosim, Pa.

Havoni almashtirish qurilmalariga oid hamma hisoblashlar havoning o'rtacha tezligidan foydalaniladi. Havo o'tkazgich kesimidagi havoning o'rtacha tezligi havo oqimi tartibiga, ya'ni Reynold soniga bog'liq bo'ladi:

$$R_e = \frac{vD}{\nu} \cong 67\,000 \, vD, \quad (21)$$

bu yerda: D — havo o'tkazgich diametri, m; v — havoning tezligi, m/s; ν — havoning kinematik qovushoqligi, m^2/s .



22-rasm. Havo o'tkazgichdagi havo oqimining laminar rejimida tezliklar maydoni.

Havoning laminar oqimi $R_e < 2320$ bo'lganda tezliklar maydoni Stoks tenglamasiga bo'ysunadi (22-rasm) va parabola ko'rinishida ifodalanadi.

$$v_n = 2v_{o'rt} \left(1 - \frac{r^2}{R^2} \right), \quad (22)$$

bu yerda: v_n — o'rganilayotgan nuqtadagi tezlik, m/s; r — nuqta bilan havo o'tkazgich markazi o'rtasidagi oraliq, mm; R — havo o'tkazgich radiusi, mm.

22-rasmdan ko'rinib turibdiki, $r = 0$ bo'lganda tezlik eng katta (maksimal) qiymatga ega bo'ladi, ya'ni,

$$v_{\max} = 2 \cdot v_{o'rt}. \quad (23)$$


Shuning uchun havo oqimining laminar rejimida o'rtacha tezlik quyidagicha bo'ladi:

$$v_{o'rt} = 0,5 v_{\max}. \quad (24)$$


Reynolds soni $R_e > 2320$ bo'lgan havo oqimining turbulent rejimida tezliklarning taqsimlanish qonuni Stoks tenglamasiga bo'ysunmaydi va egri chiziqli tenglamasi ko'rinishida ifodalanadi (23-rasm):

$$v_n = v_{\max} \left(1 - \frac{r}{R} \right)^n, \quad (25)$$

bu yerda: $\frac{1}{7} > n > \frac{1}{10}$.



23-rasm. Havo o'tkazgichdagi havo oqimining turbulent rejimida tezliklar maydoni.



24-rasm. Kirish kollektori yordamida havoning tezligini o'lchash.

Havo oqimining turbulent rejimida o'rtacha tezligi ushbu formula-dan aniqlanadi (23-rasm):

$$V_{o'rt} = a \cdot v_{max},$$

bu yerda: a — tezlik maydoni koeffitsiyenti, u Reynolds soniga bog'liq bo'lib, 0,816 dan 0,88 gacha o'zgaradi. v_{max} — havo o'tkaz-gich markazidagi maksimal tezlik, (20) formula bilan aniqlanadi.

Havo tezligini kirish kollektori va qisuvchi uskunalar yordamida aniqlash (24-rasm). Bunda havo o'tkazgichning kirish joyiga kollek-tor deb ataladigan ma'lum qarshilik koeffitsiyentiga ega bo'lgan konfuzor o'rnatiladi.

Kollektor flanetsidan $l \geq 1,5 D$ oraliqda shtutser o'rnatiladi. Keyin 1 — 1 va 2 — 2 qirgimlar uchun Bernulli tenglamasi yoziladi:


$$\pm H_{s1} + H_{D1} = \pm H_{s2} + H_{D2} + H_{yo'q1-2} = 0. \quad (24)$$

(24) formulaga birinchi qirqimdan ikkinchi qirqimgacha yo'qo-tilgan bosim $H_{yo'q1-2}$ (kollektor va to'g'ri havo quvurida yo'qotilgan bosim) qiymatlarini qo'yamiz. U quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$-H_{s2} + \frac{\rho v_2^2}{2} + (\xi_k + \frac{\lambda}{D} l) \frac{\rho v_2^2}{2} = 0.$$

Soddalashtirishdan keyin havo o'tkazgichdagi o'rtacha tezlikni aniqlash uchun quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$v_2 = \sqrt{\frac{2H_{s2}}{\rho \left(1 + \xi_k + \frac{\lambda}{D} l \right)}}, \quad (25)$$



25-rasm. Qisuvchi uskunalar yordamida statik bosimlar farqini o'lchash sxemalari:

a — diafragma orqali; *b* — Venturi quvuri orqali.

bu yerda, H_{s2} — ikkinchi qirqimdagi statik bosim, mikromanometr yordamida aniqlanadi; ξ_k — kirish kollektorining qarshilik koeffitsiyenti; l — havo o'tkazgich to'g'ri qismining uzunligi, m; $l = l_1 + h$.

